

O'zbekiston Respublikasining ratifikatsiya qilinmaydigan xalqaro shartnomalarini qabul qilish va ularning tartibi

Maxammadsoliyeva Mushtariybonu

Kirish.

Avvalo, xalqaro shartnomaga ta'rif beradigan bo'lsak, bunda **Muminovning** fikriga ko'ra, xalqaro huquqning bir nechta subyektlari o'rtasida tuziladigan, buning natijasida huquq va majburiyatlar paydo bo'ladigan, nomlanishidan qat'iy nazar, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan bitim turlariga aytiladi.¹ Bu fikrni tahlil qiladigan bo'lsak, demak, xalqaro shartnoma imzolash uchun xalqaro huquqning subyektlari bo'lishi kerak, tomonlarga huquq va majburiyat yuklashi deyilganda shartnoma imzolanishi natijasida shartnoma subyektlariga nisbatan paydo bo'ladigan qandaydir majburiyatlar hamda ular uchun foydali bo'ladigan huquqlar inobatga olinadi. Ushbu xalqaro shartnoma turiga xalqaro hujjatlarda ham xuddi shunga o'xshash ta'riflar berilgan, ularda yana qo'shimcha qilib davlatlararo tuziladigan shartnomalar yozma tarzda tuzilishi kerakligi hamda **1986-yildagi "Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasining 2-moddasida**² xalqaro shartnoma tushunchasida xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi shartnomalarni ham xalqaro ruhdagi shartnomalar sirasiga kiritilgan. Endi bizga berilgan mavzu bo'yicha yondashadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi – bir yoki bir necha hujjatdan iborat bo'lishidan o'zining nomida va tuzilish usulidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi tomonidan xalqaro tashkilot yoxud chet davlat bilan yozma shaklda tuzilgan, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro kelishuvga nisbatan aytiladi.³ O'zbekiston Respublikasining **"Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi qonunning 17-moddasiga** ko'ra xalqaro shartnomalarni majburiy ekanligiga roziligini bildirish shakllarida xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish yoki qabul qilish usullari

moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining ratifikatsiya qilinadigan xalqaro shartnomalari turlari ko'rsatilgan:

a) Davlatlararo munosabatlarning asoslari haqidagi va o'zaro huquqiy yordam to'g'risida;

b) Mudofaa bo'yicha, tinchlik bo'yicha va kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomalar;

c) Hududiy chegaralanish to'g'risidagi shartnomalar;

d) Xalqaro tashkilot yoki boshqa birlashmalardagi ishtiroki to'g'risida.

Demak, umumiy oladigan bo'lsak, harbiy tinchlik to'g'risidagi va chegaralarni belgilash hamda asosiysi, tashkilotlardagi ishtiroki to'g'risidagi shartnomalarni ratifikatsiya qilish orqali qabul qilish majburiy hisoblanadi.

Asosiy qism.

Endi asosiy qismga o'tadigan bo'lsak, bunda ratifikatsiya qilinmasdan qabul qilinadigan shartnomalarga to'xtalib o'tamiz. Yuqoridagi **qonunimizning 18**-moddasining oxirgi qismiga ko'ra, xorijdan mablag' jalb qilish yoki kafolat shartnomalari ratifikatsiya qilinmasdan qabul qilinishi aytib o'tilgan. Yana shuningdek, **22-moddaga ko'ra** xalqaro shartnomalarni tasdiqlash va qabul qilish bo'yicha hukumat nomidan -Prezident, idoralararo shartnomada esa imzolagan davlat organi tomonidan amalga oshirilishi keltirib o'tilgan. Hozirgi moddalardan xulosa qiladigan bo'lsak, xalqaro moliyaviy shartnomalar hamda kafolat to'g'risidagi shartnomalar hukumat nomidan Prezident imzolasa yoki biror davlat organi tomonidan tuziladigan bo'lsa bu turdagi xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilmasdan ham qabul qilish mumkin. Endi ushbu turdagi shartnomalarni qabul qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori** asosida aynan yuqorida keltirilgan shartnomalarni kuchga kirishi uchun yuridik xulosalar berilishi O'zbekiston

Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu hujjatda keltirilgan Xalqaro moliya institutlari hamda xorijiy hukumat moliya tashkilotlariga ta'rif beradigan bo'lsak, bunda Xalqaro moliya instituti – O'zbekiston tomonidan a'zo bo'lingan hamda davlat o'rtasida bitim asosida tuzilgan tashkilotlar hisoblanadi. Bu turdagi moliya institutlariga bir nechalarini keltirish mumkin:

a) Xalqaro Valyuta Fondi – moliya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni bajaradi va moliyaviy siyosatning rivojlanishiga yordam beradi. Bu tashkilotga O'zbekiston 1992-yilning 21-sentabrda a'zo bo'lgan hamda 1993-yilning sentabr oyidan boshlab O'zbekistonda ushbu tashkilotning vakolatxonasi ishga tushgan.⁴

b) Jahon Savdo Tashkiloti – moliya sohasidagi yagona boshqaruv organi hamda ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi.

c) Osiyo rivojlanish Banki – infratuzilmani rivojlantirish, mintaqaviy hamkorlik va qashshoqlikni kamaytirish tashabbuslari orqali Osiyo va Tinch okeani mintaqasida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ko'maklashadigan tashkilot. Ushbu tashkilotga O'zbekiston 1995 – yil 28-avgustda a'zo bo'lgan.

d) Islom Taraqqiyot Banki – o'zining a'zo mamlakatlariga kreditlar, grantlar va moliya sohasidagi salohiyatini oshirish dasturlari ko'rinishda yordam va texnik ekspertizalar bilan ta'minlaydi. Ushbu tashkilotning asosiy maqsadi islom yurtlarida iqtisodni rag'batlantirishga qaratilgan.

Prezident qarori bo'yicha ushbu xalqaro moliya institutlari bilan tuziladigan shartnomalar ratifikatsiya qilinmasdan qabul qilinishi aytib o'tilgan. Endi Xorijiy hukumat moliya tashkilotlari tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida loyihalarni moliyalashtirishni amalga oshirayotgan xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, bunga misol sifatida, eksimbanklar, taraqqiyot jamg'armalari kabilar misol bo'ladi.

“Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident qarorining Nizomi bo'yicha xalqaro shartnoma tuzish tartibini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda loyiha tashabbuskori tomonidan *1-fevralga* qadar Xalqaro hamkorlik va rivojlantirish agentligiga keying *3 yilda* amalga oshirish uchun taklif etilayotgan loyihalarini va konsepsiyalarini davlat va ingliz tillarida taqdim etishi aytib o'tilgan. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha shakllantirilgan strategiyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishiladi. Yana ushbu nizomda loyiha ishlab chiqish faqat Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi orqali amalga oshirilishi aytib o'tilgan. Bunda loyihani tashabbuskor tomonidan ishlab chiqilgach ushbu vazirlik tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Umumiy olganda, shartnoma bosqichlarga bo'lib ko'rib chiqamiz:

1) Loyihaoldi hujjatlarini tayyorlash va ko'rib chiqish tartibi – bunda loyiha tadbirlarini amalga oshirish, shuningdek, boshqa mablag'lari Davlat budjetidan amalga oshirilishi aytilgan.⁵ Loyiha tashabbuskori loyihani sifatli tayyorlanishi uchun javobgar hisoblanadi. Loyihaning

dastlabki hujjatida maqsad va vazifalari hamda hisob-kitobining toifalari ko'rsatilgan bo'lishi keltirilgan.

2) Loyihaning TIA(loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanuvi) ekspertizasi va xulosalarni tayyorlash – bu jarayon yuqorida keltirilgan nizom bo'yicha *2 hafta muddat* Ichida amalga oshiriladi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligi ko'riladi, Moliya vazirligi tomonidan esa mablag'larning manbalarini aniqlanadi, miqdor va qo'shimcha soliq, bojxona imtiyozlarini taqdim qilish kabi jarayonlar amalga oshiriladi.

3) Ekspertiza sohasida vakolatli organning ijobiy xulosasini olgandan keyin loyihani moliylashtirish ma'qullangach ikki kun muddatda amalga oshirish to'g'risidagi hukumat qarori loyahasini Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

4) **Mazkur Nizomning 23-bandiga ko'ra**, loyihaning tasdiqlangan TIAsi har bir betida TIA tasdiqlangan aktning rekvizitlari va shtempel bilan majburiy belgi qo'yilishi kerak.

Shu tartibda loyihaning asosiy hujjati tayyorlanadi hamda tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Endi loyiha bo'yicha muzokaralar olib boorish hamda moliyaviy bitimni imzolash tartibini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda loyiha bo'yicha takliflar olingach, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasini shakllantiradi hamda O'zbekiston nomidan XMI/XHMT nomiga tegishli xat yuboradi. Ushbu o'rinda aytish kerak, aynan shu delegatsiyaning rahbari bir nechta vakolatlarga ega hisoblanadi:

- ✓ Muzokaralar bayonini imzolash;
- ✓ Moliyaviy bitimlar va loyiha bitimlari imzolash;
- ✓ Xaridlar rejasini amalga oshirish.

Xaridlar rejasi nima deyilganda, **Nizomning 31-bandiga ko'ra** xarid tartib-taomillarining turlari va uslublari, loyihaning hisoblangan qiymati, bajariladigan ishlarning qisqacha ko'rinishi, mablag'lar miqdori va tovarlar yetkazish muddatlari va ularning asosiy bosqichlarini o'z ichiga olgan hujjat hisoblanadi.

Moliyaviy bitimni imzolash uchun Prezidentimiz, Vazirlar Mahkamasi qarori yoki imzo qo'yish vakolati mavjud shaxsning guvohnomasi asosida amalga oshiriladi.

Oxirgi bosqichlardan biri sifatida yuridik xulosa hamda davlat kafolatlari bo'yicha yuridik xulosalar Adliya vazirligi tomonidan imzo qo'yuvchining so'rovnomasi hamda qonunchilikka mos ravishda taqdim etiladi.

Endi loyihani qabul qilish shaklini ko'rib o'tdik, loyiha tashabbuskori tomonidan LAOG(loyihani amalga oshirish (muvofiqlashtirish) guruhi) tuzish imkoniyati mavjud.

Ushbu LAOGning asosiy vazifalari sifatida **Nizomning 44-bandiga ko'ra quyidagilar kiradi:**

- Loyihani ekspertizadan o'tkazish, xarid hujjatlarini rasmiylashtirish, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish;
- Loyihani amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilinishini o'z vaqtida ta'minlash;
- Monitoring va nazorat qilishni ta'minlash;
- XMI/XHMT ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha hamkorlik qilish;
- Xarid komissiyasining ishchi organi sifatida ishtirok etish.

Ushbu organ yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish va mahalliy davlat organlari hamda boshqa tashkilotlardan ma'lumot olish huquqlariga ega hisoblanadi. Ushbu organning majburiyatlarida **Nizomning 46-bandiga ko'ra** bir nechta ko'rinishlari mavjud:

- ❖ Moliyaviy bitim talablari hamda XMI/XHMT qoidalari va tartib-taomillariga amal qilishi;
- ❖ Loyiha tashabbuskorining farmoyishlari, buyruqlari hamda topshiriqlarini bajarish;
- ❖ Loyihani belgilangan muddatga amalga oshirish va yakunlash;
- ❖ Axborotlarning maxfiyligiga amal qilish;

Xuddi shuningdek, LAOG zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarishi hamda hujjat va ma'lumotlarning sifatli bo'lishi uchun ham javobgar hisoblanadi, lekin umumiy loyiha bo'yicha javobgarlik esa loyiha tashabbuskorining zimmasiga yuklatiladi.

Endi loyihaning amalga oshirilishi uchun umumiy bo'lgan masalalarga to'xtaladigan bo'lsak, bunda yuqoridagi **Nizomning 9-bobiga** binoan, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi vazirlik, idora va tashkilotlarga ular bilan rejalashtirilgan uchrashuvlar to'g'risida xabar berishi majburiy hisoblanadi. Hamda ushbu uchrashuvlar xarajat talab qilsa bu haqida Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Loyiha tashabbuskori yer uchastkalari olib qo'yilganda kompensatsiya to'lashda, uy-joylar, boshqa inshootlar va ekinlarni buzishda, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha masalalar bo'yicha bitimdagi



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

talablar hamda XMI/XHMT qoida va tartib-taomillari bajarilishini ta'minlaydi. Ushbu nizomning ilovasida aynan loyiha konsepsiyasi berilgan.

LOYIHA KONSEPSIYASI

1-BOB. LOYIHA HAQIDA MA'LUMOT	
Loyiha nomi	
Loyiha sohani rivojlantirish strategiyasiga bog'liqligi (konsepsiya nomi va loyiha strategiyasi doirasida hal qilinadigan vazifa(lar))	
Loyiha sohasi	
Loyihani amalga oshirish joyi	
Loyiha tashabbuskori (buyurtmachisi) (nomi, STIR, manzili, telefoni)	
Loyiha (loyiha ofisi) rahbari	
2-BOB. LOYIHA TAVSIFI	
Taklif etilayotgan moliyalashtirish rejasi: (loyiha summasi va ko'zda tutilayotgan moliyalashtirish manbai)	
Loyihani amalga oshirish:	
Loyihani amalga oshirish asoslari (shu jumladan, loyihani boshlash uchun asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar)	
Loyiha tavsifi (loyihaga kirgan ishlar tavsifi)	
Loyiha samaradorligi a) xarajat-foyda tahlili ko'rsatkichlari (NPV, IRR)	





b) xarajat-foyda tahlili ko'rsatkichlari									
O'zini oqlash muddati davri:									
Kutilayotgan loyiha xatarlari									
Xarajat turlari: Uskunalar; Qurilish-montaj ishlari; Boshqa xarajatlar									
3-BOB. LOYIHANI AMALGA OSHIRISH NATIJASIDA ERISHILISH REJALASHTIRILGAN O'LCHANADIGAN NATIJALARNING DASTLABKI MATRITSASI									
Loyiha maqsadlari									
Loyihaning maqsadli ko'rsatkichlari va ularning yillar bo'yicha taqsimoti	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Davr (yillar bo'yicha)						
			20	20	20	20	20		
Loyiha natijalari									

Umumiy hujjatning qabul qilinishi va uning tartibi bilan tanishib chiqdik, endi qo'shimcha sifatida ushbu turdagi xalqaro shartnomalarni imzolaydigan tomonlarga beriladigan imkoniyatlarga to'xtalsak, bunda Prezident qarorining 3-bandiga binoan, loyiha tashabbuskorlaridan Tashqi ishlar vazirligi tomonidan konsullik va boshqa yig'imlar undirilmagan holda amalga oshiriladi deb belgilangan. Yana shuningdek, bu turdagi shartnoma subyektlariga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lashdan ozod etiladi.

Xulosa

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, demak, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish orqali qabul qilish hamda ratifikatsiya qilmasdan qabul qilish shakllarini ko'rib chiqdik hamda ratifikatsiya qilmasdan qabul qilinadigan shartnomalarni qabul qilish tartibi bilan tanishib chiqdik. Bu turdagi shartnomalar, asosan, moliyaviy tipdagi shartnomalar hisoblanadi. Bunday shartnomalarni ham xalqaro tashkilotlar tomonidan tuzilishini inobatga olgan holda, bu subyektlar o'rtasida tuziladigan shartnomalar xalqaro shartnoma hisoblanadi, chunki 1086-yildagi Vena shartnomasida xalqaro shartnoma





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

imzolovchi subyektlar qatorida xalqaro tashkilotlar ham kiritilgan. Oxirgi qismda keltirilgan loyiha konsepsiyasida yuqorida aytgan barcha tartib-tamoyillar bo'yicha holatlar keltirilgan.

Foydalanilgan manbalar:

1. Xalqaro shartnomalar huquqi: O'quv qo'llanma// Azimov M. M., A.R., Nugmanov N.A. Umarxonova D. SH. – T.: TDYU nashriyoti, 2017. – 210bet.
2. 1986-yildagi “Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risida”gi Vena konvensiyasi
3. “Xalqaro shartnomalar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni – O'zbekiston milliy qonunchilik rasmiy veb-sayti - <https://lex.uz/docs/4193761>
4. <https://cbu.uz/uz/about/international-cooperation/74827/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti
5. “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori – O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi - <https://lex.uz/ru/docs/-3823564>

